



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2026-yil 22-aprel

Koreya-O'zbekiston ilmiy tadqiqot va loyiha instituti kimyo-texnologiya innovatsiya markazi



Koreya-O'zbekiston ilmiy tadqiqot va loyiha instituti kimyo-texnologiya innovatsiya markazi

Mazkur loyiha ilg'or ilmiy ishlanmalarni joriy etish, zamonaviy kimyo sanoati texnologiyalarini rivojlantirish hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan.

Mazkur markaz Koreya Respublikasining ilmiy-tadqiqot tajribasi va innovatsion yondashuvlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda, yangi turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va sanoat korxonalarini uchun yuqori qo'shilgan qiymatli yechimlar yaratishga xizmat qiladi.

Markaz faoliyati doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tajriba-sinov ishlari (R&D), pilot loyihalarni ishlab chiqish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va kadrlar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali yangi investitsiya loyihalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Loyihaning asosiy maqsadi

Loyihaning asosiy maqsadi — O'zbekistonda kimyo-texnologiya sohasida ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va raqobatbardosh kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat.

Shu bilan birga, markaz faoliyati quyidagi ustuvor ilmiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Gaz va ko'mir kimyosi

Gaz va ko'mir kimyosi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish.

Zamonaviy analitika

Kimyoviy moddalarni chuqur tahlil qilish va zamonaviy analitik usullarni joriy etish.

Sorbent va filtrlar

Sorbentlar va filtrlovchi materiallar ishlab chiqish.

Katalizatorlar

Yuqori samarali katalizatorlar yaratish va takomillashtirish.

Nanomateriallar

Nanomateriallar sintezi va ularni amaliyotga joriy qilish.

Kompozit materiallar

Kompozit materiallar ishlab chiqish va ularning qo'llanilish sohasini kengaytirish.

Asosiy vazifalar

- ilg'or xorijiy texnologiyalar transferini ta'minlash;
- mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish;
- yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqish;
- ilm-fan va sanoat integratsiyasini kuchaytirish;
- yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish.

Loyiha ko'rsatkichlari

2022-2026

Amalga oshirish muddati

15+

Yillik R&D loyihalari

7+

Pilot loyihalar

Yangi ish o'rinlari

Asosiy afzalliklar

- Ilmiy va sanoat integratsiyasi: markaz ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirib, tadqiqot natijalarini to'g'ridan-to'g'ri sanoatga joriy etish imkonini beradi.
- Xalqaro tajriba va texnologiyalar transferi: Koreya bilan hamkorlik orqali ilg'or texnologiyalar, zamonaviy laboratoriya uskunalari va menejment tajribasi jalb etiladi.
- Importni kamaytirish: hozirda import qilinayotgan ko'plab kimyoviy mahsulotlar (sorbentlar, katalizatorlar, kompozitlar)ni mahalliy ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.
- Eksport salohiyatini oshirish: yuqori qo'shilgan qiymatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati yaratiladi.
- Innovatsion ekotizim yaratish: markaz atrofida startaplar, kichik innovatsion korxonalar va tadqiqot guruhlarini shakllanadi.
- Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: yosh mutaxassislar, talabalar va muhandislar uchun amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirish imkoniyati yaratiladi.
- Mahalliy xom ashyodan samarali foydalanish: gaz, ko'mir va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjiri yaratiladi.
- Ekologik samaradorlik: sorbentlar, filtrlar va yangi texnologiyalar orqali atrof-muhitga chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlik ta'minlanadi.

Kutilayotgan natijalar

Ilmiy natijalar

Har yili 10-15 ta ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi turdagi kimyoviy mahsulotlar, materiallar va texnologiyalar yaratish, xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish hamda patentlar va intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish.

Sanoat va innovatsion natijalar

Kamida 5-7 ta pilot loyihani ishlab chiqish va sanoatga joriy etish, sorbentlar, katalizatorlar, nanomateriallar va kompozitlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, mahalliy sanoat korxonalarini uchun texnologik yechimlar ishlab chiqish hamda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy samaradorlik

Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hisobiga daromadlarni ko'paytirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

Ijtimoiy natijalar

50-100 ta yuqori malakali ish o'rinlarini yaratish, yosh olimlar va mutaxassislar uchun ilmiy faoliyat olib borish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar

tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Loyiha galereyasi



ADMINISTRATION Courtyard







source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/investment/krikt-direksiyasi-mcz-lojiasi>